

OGAHIYNING “BIR BO’S SA BER” RADIFLI G’AZALI TAHLILI

Shahobiddin Yo’ldoshev

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Filologiya va tillarni o’qitish: arab tili yo’nalishi
(arab-ingliz) guruhi 1-bosqich talabasi
ilmiy rahbar f.f.d ,prof. Shomusarov Sh.*

Annotatsiya: Ushbu maqola mohir tarjimon, shoir va davlat arbobi Muhammad Rizo Ogahiyning “Bir bo’sa ber” radifli g’azali tahliliga bag’ishlangan. Maqolada g’azalning tuzilishi, she’riy san’ati va ma’naviy jihatlari ilmiy asosda yaratilgan. O’zimga qiziq bo’lgan ba’zilari: Adib ijodi haqida ham yetarlicha xulosalar bor.

Kalit so’zlar: Ogahiy, jovidon, royig’on, nihon, navjuvon, Tashbeh, Takrir, Tanosub, Tazod

Annotation: This article is dedicated to the analysis of the ghazal “Bir bo’sa ber” by Muhammad Reza Agahi, a skilled translator, poet and statesman. The article describes the structure of the ghazal, its poetic art, rhyme and spiritual aspects on a scientific basis. Here are some of the ones I found to be interesting: There are also enough conclusions about the author’s work.

Key words: Agahi, forever, free, hidden, young, Tashbeh, Takrir, Tanosub, Tazod

Абстрактный: Данная статья посвящена анализу лучезарной газели «Бир боса бер» искусного переводчика, поэта и государственного деятеля Мухаммада Резы Огахи, на научной основе создаются структура, поэтическое искусство и духовные аспекты газели. Некоторые из них мне интересны: Достаточно выводов о творчестве писателя.

Ключевые слова: Агахи, Джавидон, Райгон, Нихон, Навджуван, Ташбех, Такрир, Таносуб, Тазад.

Kirish:

Muhammadrizo Erniyozbek o’g’li Ogahiy –shoir, tarixchi va tarjimon. Xiva madrasasida tahsil ko’rgan va arab, fors, turk tillarini puxta egallagan. Ogahiy xalq orasida ko’proq lirik shoir sifatida mashhurdir. Shoir aruzning juda ko’p bahrlaridan foydalangan. Uning g’azallari “shashmaqom”ning hamma kuylariga tushadi, Xorazm xalq ohanglariga mos keladi. Uning xalq orasida mashhur g’azallaridan biri “bir bo’sa ber” g’azali hisoblanadi.

Asosiy qism:

Ey yuzing shavqi tanimdan oldi jon, bir bo’sa ber,

Voy labing zavqi ichimni qildi qon, bir bo’sa ber.

Bu misrada yorni birinchi marta ko'rgan oshiqning holati tasvirlangan. Yorning go'zalligidan oshiqning holi endi xarob bo'layotganligini shoir chiroyli shakilda qog'ozga tushirgan. Buni "oldi jon" va "qildi qon" dan bilib olishimiz mumkin.

**Tobakay qahring bila nokom o'ylakim goh-gohi,
 Til uchidin lutf etib ochib dahon, bir bo'sa ber.**

Bu misrada nokom so'zining ma'nosini bilish misraning mohiyatini ochib berishi mumkin. Bu so'z istaksiz, shodliksiz degani. Demak, oshiq go'zalning qahri sababli umidsizlikka tushib qolmoqda, lekin uning lutfidan hali ham umidvor. Ikkinchi misradagi til, dahon (og'iz) va bo'sa so'zlari bir-biriga mutanosib va bu tanosub she'riy san'atini hosil qiladi. Tanosub – baytda, umuman, she'riy bandlarda ma'no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llash orqali hosil qilinadi.

**Xastalarg'a no'shi la'lingdur ravo baxsh abad,
 To topay men ham hayoti jovidon, bir bo'sa ber.**

Bu misrada shoir istiora she'riy san'atidan mohirona foydalangan.. La'l orqali labga ishora bu san'atini hosil qilgan. Istiora – ko'chimning ko'p ishlatiladigan ko'rinishlaridan biri. Istiorada biror narsa hodisaga xos xususiyatlarni boshqa bir narsa-hodisaga ko'chirish orqali badiiy ma'no ifodalanadi. Lekin bu ko'chirishda tashqi o'xshashlik asosiy o'rin tutmaydi. Balki o'xshatilayotgan va o'xshayotgan narsa-hodisalar orasidagi ichki mantiqiy bog'lanishga, yaqinlikka, vazifalardagi umumiylikka tayaniladi. Ta'riflanishicha, go'zalning bo'sasi xastalarni davolab, ularga mangu hayot baxsh etadi. Oshiq ham hayoti jovidon, ya'ni mangu hayotni xohlaydi.

**Gar tani bemorima bermak tilarsan noza jon,
 Jon kibi ko'ksim aro aylab makon, bir bo'sa ber.**

Oshiqning istaklari ortib bormoqda, u endi yordan o'zining quchog'ida bo'sa olishni xohlayotganini bu misra orqali bilib olishimiz mumkin. Ogahiy g'azalda she'riy san'atlar qo'llashda juda mahoratli bo'lgan. Bu misrada qo'llanilgan tasbe san'ati buning isbotidir. Tasbeda birinchi misra oxiridagi so'z keyingi misra boshida takrorlanadi. Tasbening asosiy xususiyati shundaki, u kitobxon diqqatini fikr yuritayotgan obyektga markazlashtiruvchi linza vazifasini bajaradi. Chunki birinchi misra oxiridagi so'zning keying misrani boshlashi beixtiyor kitobxon ongida ta'sir qo'zg'atadi va bu ta'sir kitobxonni shu so'z ustida o'ylashga majbur qiladi. Baytdagi "jon" so'zining birinchi misra oxiri va ikkinchi misra boshida takrorlanishi ham bizni beixtiyor o'ziga jalb qiladi.

**Bo'sai la'ling nabotig'a gar istarsan baho,
 Mandin olib hosil-u, jon-u jahon, bir bo'sa ber.**

Shoirning yozishicha, go'zal o'z bo'sasini baholashni xohlasa, uning narxi oshiqning joniga teng.

**Yo'qsa izhor aylabon mehr-u muruvvat rasmini,
 Men g'aribi bedilingga royig'on, bir bo'sa ber.**

Oshiq yordan mehr istamoqda. Royig'on so'zi moyillik, mayl ma'nolarini anglatishidan kelib chiqsak, oshiq yorning o'z xohishi bilan undan bo'sa qabul qilmoqchi.

**Lahza-lahza to'tiyi ta'bini go'yo istasa,
 Shakkaristoni labingdin har zamon bir bo'sa ber.**

Yuqoridagi misrada labni shakkariston deb sifatlar ekan, tashbih san'atidan foydalangan. Tashbihda narsa, belgi va harakat kabilar boshqasiga o'xshatish, qiyoslash orqali tasvirlanadi. Bu o'sha tushunchani anglash va his qilishni osonlashtiradi.

**Oshkora bo'sa bermakdin agar sharm aylasang,
 Xilvat ichra kelib, eldin nihon ,bir bo'sa ber.**

Bu baytni tushinish juda oson, faqat nihon so'zining ma'nosini bilsak bas . Bu so'z yashirin degan ma'noni anglatadi. Baytda oshkora va nihon so'zlari tazodni hosil qilgan. Tazod-she'rda qarama-qarshi, bir-biriga zid ma'noli so'zlarni qo'llash.

**Ogahiy pir-u zaif o'lmish chekib ishqing yukin,
 Istasang uni qar-yu navjuvon ,bir bo'sa ber.**

Shoir go'zalning ishqida yonib yoshi o'tib bormoqda va murojaat qilmoqdaki, yorning bo'sasi oshiqni qaytadan yoshartirish qudratiga ega. Bundan bilinadiki, she'rning zohiriy ma'nosidagi go'zal botiniy ma'noda Allohni bildiradi. Albatta, Alloh go'zallikda tengsiz va uning qudrati cheksiz, bunga shubha yo'q. Demak, g'azalni qayta o'qib chiqsak ,Ogahiyning mahoratiga qoyil qolishimiz kerakki, shoir g'azalining mazmuni bunga asos bo'la oladi.

Xulosa:

Ogahiy ijodining mavzu doirasi keng. Ammo, U qaysi mavzuga murojaat qilmasin, ishqni chetlab o'tolmaydi. Ishq uning qalamida mavzuni yoritishda ,g'oyani ilgari surishda asosiy badiiy vosita. She'riyatda ishq iymon, erk, vatan, zakovat timsoli kabi lirik qahramonning o'y-kechinmalari ,dunyoqarashini harakatlantiruvchi kuch. Tasavvufiy ruhdagi bitilgan asarlarni o'qish kishidan alohida tayyorgarlikni talab qiladi. Xususan, bunda tasavvufiy islohotlardan boxabar bo'lishi lozimdir. Yo'qsa, asar ma'nosi anglashilmaydi yoki butunlay zid ma'noda tushunilishi mumkin. Ushbu g'azalda ham lirik qahramon yorga yolvorib :”Bir bo'sa ber”, deya o'tinar ekan, bunda solih bandaning Allohdan lutf-u marhamat tilayotganini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Ogahiy she'riyatidan .-Toshkent, 1983. www.ziyouz.com kutubxonasi

Ogahiy-Taviz-ul oshiqin .-Toshkent: Klassik so'z, 2014.

Mahmuda Otaxonova –”Lirik she'r san'ati”.”Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rni” Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. Toshkent-2020

O'zbek shevalarining morfologiyasi.-Toshkent, 1984.-B.47.



REFERENCES:

From the poetry of Agahi.-Tashkent,1983.www.ziyouz.com library.

Agahi-Taviz-ul oshiqin.-Tashkent :Classic word,2014.

Mahmuda Otakhanova-“The art of lyric poetry”.Proceedins of the Republican scientific-theoretical conference”The role of Muhammad Reza Agahi in the development of Uzbek classic literature.”Tashkent-2020

Morphology of Uzbek dialects.-Tashkent ,1984.-B.47.